

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11069558>

TEMURIYLAR DAVRI TARIXINI YEVROPADA O‘RGANILISHINING AYRIM JIHATLARI

Ismatullayeva Zebo Shukurjonovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Katta o‘qituvchisi

O‘rta Osiyo tarixi, xalqimizning tili, madaniyati, urf- odatlari Yevropa sharqshunoslarini qadimgi davrlardan qiziqtirib kelgan. Yevropa sharqshunoslik maktabi XVI asrdayoq shakllana boshladi. O‘sha zamonlarda Yevropada Sharqqa qiziqish g‘oyat kuchaygan bir payt bo‘ldi. Ayniqsa, O‘rta Osiyo o‘zining jug‘rofiy o‘rniga ko‘ra, ham Sharq bilan G‘arb, Shimol bilan Janub o‘rtasida ilg‘or g‘oyalar targ‘ibotchisi vazifasini o‘tab kelgan.

Jahonda yildan – yilga O‘zbekiston tarixi va madaniyatiga qiziqish ortib bormoqda. Va ayniqsa, bu sohada Yevropalik tadqiqotchilar yetakchilik qilmoqdalar. To‘g‘ri, bu qiziqish oldin ham bo‘lgan, jumladan, Amir Temur davrida bevosita diplomatik aloqalarni o‘rnatgan davlatlar: Angliya, Fransiya, Ispaniya bo‘lsada, ammo Amir Temur va Temuriylar davriga o‘rganish, tadqiq etish Italiyadan boshlanganligini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Jumladan, Amir Temur haqidagi ilk tarixiy asar ham muallif Perondinoning “Skifiyalik Tamerlanning ulug‘vorligi” nomi bilan Italiyaning Florensiya shahrida 1553 yili bosilib chiqdi[1, B.129]. Bu Yevropa olimlarining Amir Temur haqidagi birinchi ilmiy tadqiqoti edi. Keyinchlik Temurga shaxsiga qiziqish qo‘shni davlatlar Fransiya va Ispaniyada ham boshlanib, ko‘plab asarlar yaratiladi.

Yevropa Temuriylar davri tarixini o‘rganishda jonbozlik ko‘rsatayotgan “Temuriylar assotsiyasini”ni xizmati kattadir. Ushbu uyushma Temuriylar davri madaniyati san‘ati, tarixi va ilmiy bilimlarning rivojlanish holati masalalarini tadqiqi va targ‘iboti bilan

shug‘ullanib kelmoqda[2]. 2008 yil 28 oktyabr kuni Fransiyada ushbu assotsiyasining 20 yilligi nishonlandi. Ushbu sana munosabati bilan Parijda Temuriylar assotsiatsiyasi azolari, Fransiya vazirlik va idoralari, ushbu mamlakatda akkreditatsiyadan o‘tgan diplomatiya vakolatxonalari vakillari ishtirokida qator madaniy tadbirlar o‘tkazildi.

Tadbirda yig‘ilgan mehmonlar, olimlar, tadqiqotchilar, o‘tgan davr mobaynida o‘zbek xalqining madaniy, ilmiy-ma’naviy salohiyatini, milliy qadriyatlarni chuqur tadqiq etish va tiklashga katta e’tibor qaratib kelinayotgani ta’kidlanib, shu ma’noda Amir Temur va temuriylar davri merosini o‘rganishga alohida ahamiyat qaratilyotgani e’tirof etildi.

Temuriylar davrining yirik vakili ham olim, ham shoh Mirzo Ulug‘bek ijodini o‘rganishga xalqaro miqyosda e’tibor kuchayib, uning me’morchilik sohasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi mutaxassislar tomonidan yuqori baxolanmoqda.

Yunesko tomonidan 1994 yilning 21-28 oktyabrida, Toshkent, Istambul, Parij shaharlarida Mirzo Ulug‘bek tavnalludining 600 yiliga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkazildi. Tadbir davomida Parijning “Segur” ko‘rgazmalar zalida “Tarix va zamonaviylik” mavzusida Markaziy Osiyo tarixi hamda Temur va temuriylar davri tarixi haqida hikoya qiluvchi ko‘rgazma tashkil etilib, keng jamoatchilik tomonidan yaxshi qabul qilindi[3, B.30].

Temuriylar davri tarixi va madaniyatini o‘rganish fransuz assotsiatsiyasini asoschisi va rahbari professor Lyusen Keren hisoblanadi. U o‘z ilmiy tadqiqotlarini bevosita, Temuriylar davri tarixini o‘rganishga bag‘ishlab, bir qator kitob va ilmiy maqolalar nashr ettirgan. Jumladan, uning “Samarqandga Temur davri sari yo‘l” kitobi nafaqat fransuz va o‘zbek olimlari, balki butun Yevropa tadqiqotchilari va jamoatchiligi o‘rtasida katta qiziqish uyg‘otib, ko‘plab tillarga tarjima qilingan[4, B.42].

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, ushbu Assotsiatsiya temuriylar davriga bag‘ishlangan turli ilmiy tadqiqot va taqdimotlar o‘tkazadi, kitoblar nashr etadi. Assotsiatsiyaning “Temuriylar” deb nomlagan jurnali sahifalarida o‘zbek va fransuz olimlarining o‘sha davr tarixi, san’ati va madaniyatiga bag‘ishlangan, shuningdek, bugungi O‘zbekistonning ilmiy va madaniy hayoti bilan bog‘liq maqolalari muntazam ravishda chop etilib kelinyapti.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1996 yil aprel oyida Amir Temurning 660 yilligiga bag‘ishlangan shodiyonalar doirasida YUNESKOning Parijdagi bosh qarorgoxida Lyusen Kerenni “Shuxrat” ordeni bilan mukofotladi.

Lyusen Kerenni yana bir muhim hizmati shundaki, u Amir Temurning xaqqoniy qiyofasini fransuzlar va yevropaliklarga yetkazish maqsadida tarixiy pe’sa yozdi. Ushbu pe’sa Parijning “Odeon” teatrida sahnalashtirildi[5]. Va butun Fransiya buyuk Temur va Temuriylar davri madaniyatidan baxramand bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Mashhur Temuriyzoda Boburning davlatchilik siyosati va ilmiy ijodi nafaqat O‘zbekistonda balki butun dunyoda o‘rganilib tadqiq etib kelinmoqda. Bu yo‘nalishda Yevropa davlatlari olimlarining tadqiqotlari ham salmoqli bo‘lib, Boburshunoslik ilmini rivojlanishiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilmoqda. Ayniqsa, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi davlatlarda aynan Bobur va butun Temuriylar davriga oid ko‘plab ilmiy asarlar yaratilmoqdaki, bu albatta Sharq tarixiga bo‘lgan qiziqishni kundan-kunga ortib borishiga, shu bilan birga o‘zaro ma’naviy hamkorliklarni yo‘lga qo‘yilishida muhim omil bo‘lmoqda.

Zahiriddin Muhammad Bobur adabiyot, san’at, tarix va ilm-fanning turli jabhalarida bebaho asarlar yaratdi. Uning eng yirik asari “Boburnoma”dir[8]. Yevropa ilm ahliga Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ilk bor ma’lumot bergan fransuz sharqshunosi Bartoleme d’Erbelo (1621–1695) hisoblanadi. D’Erbelo o‘zining “Sharq kutubxonasi” (1697) qomusidagi “Bobur yoki Bobar” maqolasida Boburning hayoti, uning davlati va sarkardalik mahorati, adabiyot va san’atga qiziqishi haqida ma’lumot berib o‘tadi. “Boburnoma”ni Yevropaga birinchi bo‘lib tanitgan olim esa gollandiyalik Vitsen bo‘ldi. Vitsen “Boburnoma”dan olingan parchalarni tarjima qilib, 1705 yilda nashr ettiradi.

Yevropada madaniy tabirlarni o‘tkazish muntazamlik kasb etib, Temuriylar davri tarixi va madaniyatini o‘rganish fransuz assotsiatsiyasi bosh kotibi Frederik Bressan xonim 1997 yilda o‘zining “Samarqandning moviy oltini” deb nomlangan ajoyib suratlar bilan bezatilgan albomining keng jamoatchilikka xavola etgan. Albom taqdimotida olima “dunyoda ikkita nurafshon va olamga mashxur shaxarlar bo‘lsa bularning biri – Parij, ikkinchisi-Samarqand” degan edi. Ushbu muallifning 2003 yilda navbatdagi ilmiy-

tadqiqot mahsuli “Maxobatli Samarqand” deb nomlangan kitobi bosmadan chiqdi. Ushbu kitobda olim asosiy e’tiborini Amir Temur va uning vorislari hukumronlik qilgan davrda adabiyot va she’riyatning himoyasi va rivojiga katta e’tibor qaratganligini, ilmiy dalillar asosida ko’rsatib bergan.

Bundan tashqari, Assotsiatsiya o‘zbek shoirlari ijodiga mansub she’rlarni fransuzcha tarjimalarini taqdim etdi. Bu e’tibor Fransiyada O‘zbekistonning xaqiqiy do‘stlari, o‘zbek xalqining qadimiy va o‘ziga xos madaniyati va san’atini qadrlaydigan insonlar yashayotganidan dalolatdir.

Temuriylar davri madaniyati, san’ati turli ko‘rgazmalar tashkil etish orqali, keng jamoatchilikka namoyish etilib kelinmoqda. Ana shunday ko‘rgazmalardan biri “Samarqand ranglari” nomi bilan Parijdagi “Aleksandr Kaden” badiiy galereyasida namoyish etildi. Ko‘rgazmaga Temuriylar davri tarixi va madaniyatini o‘rganish fransuz assotsiatsiyasi bosh kotibi F.Bressan xonimning foto asalari ham namoyish etildi.

Hukumatimiz horijda yurtimiz tarixi va madaniyati bilan shug‘ullanib kelayotgan ko‘plab olim va adbiyotchilarni davlatimizning nufuzli mukofotlari bilan taqdirlab kelmoqda. Uning mantiqiy davomini 2018 yil 9 oktyabrda O‘zbekiston tarixi va madaniyatini o‘rganishga munosib hissa qo‘shgan Fransiyaning taniqli adabiyot va ilm-fan namoyondalari – yozuvchi Amin Maaluf, olimlar Frederik Bopertyui - Bressand xonim va Frans Grenelarga Samarqand shahri faxriy fuqarosi unvonini topshirilganligida ko‘rish mumkin[6].

Ulardan biri Amin Maaluf o‘zining “Samarqand” romani bilan o‘zbek kitobxonlariga yaxshi tanish bo‘lib, uning romani o‘zbek tilida 2003 yil “Jahon adabiyoti” jurnalining 6-7, 2005 yilning 7-8 sonlarida chop etilgan. Romanda shoir va faylasuf Umar Xayyomning Samarqanddagi hayoti, XI asrdagi ijtimoiy – siyosiy hayot talqini aks etgan [7]. Bu albatta bir tomondan Fransiyada Sharq tarixga qiziqish juda katta ekanligidan dalolat bersa, ikkinchidan ularning O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan rag‘batlantirilishi xorij olimlarini yanada katta qiziqish bilan vatanimiz tarixi va madaniyatini o‘rganishga hamda xalqaro hamjamiyatga yanada kengroq targ‘ib etishda katta turtki bo‘lishi, shubhasiz.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, o‘tgan davr mobaynida Amir Temur va Temuriylar tarixiga bag‘ishlangan mingdan ortiq asarlar yaratildi. Turli davlatlarda hamon tadqiqotlar davom etmoqda. Temuriylar davri - bu insoniyat tarixining eng gullagan davrlaridan biri sifatida yangidan-yangi tadqiqotlar uchun tuganmas ilxombaxsh manba bo‘lib xizmat qilishda, yoshlar manaviyatini yuksaltirishda asosiy ibrat va namuna maktabi bo‘lib qolaveradi.

Adabiyotlar:

1. Муҳаммаждонов А. Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2017. – Б.129.
2. Францияда Темурийлар ассоциациясининг 20 йиллиги нишонланди // Тошкент оқшоми. –2008. – 28 октябрь.
3. Матхолиқов Қ.А. Ўзбекистон Республикаси ва Европанинг Франкофон давлатлари ўртасидаги маданий алоқалар тарихи (Франция, Швейцария ва Бельгия мисолида (1991-2005йй)). Автореф. т.ф.н. ТошМУ. 2008. – Б – 30.
4. Давронова З. Мозийга туташ томирлар // Мулоқот. – Т.: 2002, №5. – Б.42.
5. Францияда Темурийлар ассоциациясининг 20 йиллиги нишонланди // Тошкент оқшоми. – 2008. – 28 октябрь.
6. Ўзбекистон – Франция: узоқ муддатли ҳамкорликни янада кенгайтириш ва мустаҳкамлаш йўлида // Халқ сўзи. – 2018. – 10 октябрь.
7. Самарқандга ўзгача меҳр қўйган француз ёзувчиси // Халқ сўзи. – 2018. – 11 октябрь.
8. Бобур ва “Бобурнома” француз шарқшунослиги саҳифаларида // <http://ishtixon.uz/uz/node/746>
9. Odiljonovich, I. F. (2022). The Role Of Art Exhibitions In The Development Of Cultural Relations Between Uzbekistan And The European Union. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1522-1524.
10. ИСМАТУЛЛАЕВ, Ф. (2020). INTERNATIONAL CULTURAL RELATIONS OF UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF THE EUROPEAN UNION). O ‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 1(5).